XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

Xalqaro Nordik universiteti

rektori Sh. Mustafakulov



2026-yil “2” noyabr

ANTI-PLAGIAT TIZIMIDAN FOYDALANISH VA ILMIY, O‘QUV ISHLARINI ORIGINALLIKKA TEKSHIRISH

TARTIBI

2026/2027 o‘quv yili

Universitet Kengashidan o‘tkazilganligi:

Universitet Kengashining 2026-yil 30-oktabrdagi 10-son yig‘ilishida muhokama qilingan va amaliyotga tatbiq etish uchun tavsiya etilgan.

Toshkent – 2026

UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur Tartib Xalqaro Nordik universitetida (keyingi o‘rinlarda – Universitet) talabalar, magistrantlar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va professor-o‘qituvchilar (keyingi o‘rinlarda – PO) tayyorlaydigan o‘quv, ilmiy va o‘quv-uslubiy ishlarni StrikePlagiarism.com anti-plagiat tizimi (keyingi o‘rinlarda – Tizim) yordamida originallikka tekshirish, natijani talqin qilish va rasmiylashtirish, aniqlangan holatlar bo‘yicha chora ko‘rish hamda tekshiruvlar natijalarini tahlil qilish tartibini belgilaydi.

1.2. Tartib quyidagi hujjatlar asosida ishlab chiqilgan:

– O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637),

– O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonuni (2006-yil 20-iyul, O‘RQ-42),

– O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni (2019-yil 2-iyul, O‘RQ-547),

– Universitet Kengashining 2025-yil 25-dekabrdagi 12-son yig‘ilishida tasdiqlangan ta’lim va ilmiy tadqiqotlarda sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnoma,

– Universitetning “Akademik halollik va etika qoidalari to‘g‘risida nizom” (keyingi o‘rinlarda – Akademik halollik nizomi), “Talabalar bilimini baholash to‘g‘risida nizom”, “Intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni himoya qilish va mualliflik huquqi to‘g‘risida nizom” va “Raqamli ta’lim muhitida axborot xavfsizligi to‘g‘risida nizom”.

1.3. Akademik halollik nizomi qoidabuzarlik turlari, darajalari, ko‘rib chiqish tartibi va javobgarlik choralarini belgilaydi, mazkur Tartib esa ularni aniqlashning texnik va tashkiliy mexanizmini – tizim va uning sozlamalari, mas’ullar, muddatlar, natija hujjatlari va tahlilni belgilaydi. Akademik halollik nizomidagi o‘xshashlik darajasi bo‘yicha qarorlar (4-jadval) joriy yozma topshiriqlarga, originallik talablari (7.3-band) bitiruv malakaviy ishlari (keyingi o‘rinlarda – BMI) va magistrlik dissertatsiyalariga qo‘llaniladi, mazkur Tartib ularni boshqa ish turlari uchun to‘ldiradi (2-jadval).

1.4. Tartib Universitetning barcha fakultetlari, kafedralari, tarkibiy bo‘linmalari va Tizimdan foydalanuvchi barcha xodimlar uchun majburiy.

1.5. Tekshiruv natijasi birinchi navbatda pedagogik fikr-mulohaza manbai hisoblanadi. O‘xshashlik koeffitsienti yoki sun’iy intellekt (keyingi o‘rinlarda – SI) ko‘rsatkichining o‘zi qoidabuzarlik dalili emas, qaror o‘xshashlik hisobotining ekspert tahlili va boshqa dalillar majmui asosida qabul qilinadi.

ASOSIY TUSHUNCHALAR

2.1. Tartibda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

– **StrikePlagiarism.com tizimi** – Plagiat.pl kompaniyasi (Polsha) ishlab chiqqan, panel.strikeplagiarism.com manzili orqali ishlaydigan onlayn anti-

plagiat tizimi, u matnni internet manbalari, RefBooks ilmiy nashrlar bazasi va Universitet bazasi bilan solishtiradi, tarjima orqali o‘zlashtirishni va matn manipulyatsiyasini aniqlaydi, SI ishtiroki ehtimolini baholaydi,

– **o‘xshashlik hisoboti** – Tizim har bir tekshirilgan ish bo‘yicha yaratadigan interaktiv hisobot: o‘xshashlik koeffitsientlari, manbalar ro‘yxati, eng uzun 10 ta mos fragment, ogohlantirishlar, SI tahlili, topshiriq doirasida o‘zaro solishtirish, imlo va grammatika tekshiruvi natijalari,

– **o‘xshashlik koeffitsienti 1 (O‘K-1, Tizimning rus tilidagi interfeysida – КП1)** – ish matnining manbalarda topilgan kamida 5 so‘zli iboralardan iborat qismi ulushi, foizda,

– **o‘xshashlik koeffitsienti 2 (O‘K-2, КП2)** – ish matnining manbalarda topilgan kamida 25 so‘zli iboralardan iborat qismi ulushi, foizda, u yirik hajmdagi so‘zma-so‘z ko‘chirishni ko‘rsatadi,

– **unikallik koeffitsienti** – Tizim hech bir manbada topmagan matn ulushi, foizda (yordamchi ko‘rsatkich),

– **iqtibos koeffitsienti (КЦ)** – qo‘shtirnoq ichida berilgan matn ulushi, foizda, Tizim iqtiboslarning qonuniyligini baholamaydi, uni ekspert belgilaydi,

– **SI ko‘rsatkichi (*ИИ*)** – matn generativ SI yordamida yaratilgan bo‘lishi ehtimolining Tizim bergan bahosi: 0–40 foiz – past ehtimol, 41–60 foiz – kichik ehtimol, 61–80 foiz – SI ta’siri (SI yordamida tahrir yoki tarjima) ehtimoli, 81–100 foiz – yuqori ehtimol,

– **ogohlantirishlar** – Tizim aniqlaydigan, o‘zlashtirishni yashirishga urinish (matn manipulyatsiyasi) alomatlari: harflarni boshqa alifbo belgilariga almashtirish, harflar oralig‘ini sun’iy kengaytirish, so‘z ichidagi mikrobo‘shliqlar, oq rangdagi (ko‘rinmaydigan) belgilar, parafraz (so‘zlarni sinonimlar bilan almashtirish),

– **qonuniy moslik** – to‘g‘ri rasmiylashtirilgan iqtiboslar, me’yoriy hujjatlar matni, rasmiy statistika, formulalar, umumqabul qilingan atamalar, standart shakllar va adabiyotlar ro‘yxati bilan moslik,

– **tahlildan keyingi o‘xshashlik** – ekspert o‘xshashlik hisobotida qonuniy mosliklarni qabul qilib, hisobdan chiqargandan keyin Tizim qayta hisoblagan O‘K-1 qiymati,

– **originallik** – 100 foizdan tahlildan keyingi o‘xshashlikni ayirish orqali aniqlanadigan ko‘rsatkich, foizda,

– **Universitet bazasi** – Tizimdagi Universitet ishlari saqlanadigan ichki baza, keyingi tekshiruvlarda ishlar shu baza bilan ham solishtiriladi,

– **protokol** – Tizim Universitet shabloni asosida o‘xshashlik hisoboti ma’lumotlari bilan avtomatik to‘ldiradigan, tekshiruvchi chop etib imzolaydigan hujjat,

– **mas’ul tekshiruvchi** – kafedra mudiri tayinlagan, Tizimda shaxsiy hisobga ega va Tizim bo‘yicha treningdan o‘tgan PO,

– **tekshiruvchi (ekspert)** – ishni Tizimda tekshirgan va o‘xshashlik hisobotining ekspert tahlilini o‘tkazgan fan o‘qituvchisi, ilmiy (amaliyot) rahbari yoki mas’ul tekshiruvchi,

– **tekshiruv ma’lumotnomasi** – tekshiruv natijasi va ekspert xulosasi qayd etilgan rasmiy hujjat (1-ilova),

– **tekshiruvlar reyestri** – bo‘linmada o‘tkazilgan barcha tekshiruvlarning elektron jurnali (2-ilova),

– **Buzilishlar reyestri** – Akademik halollik nizomiga ko‘ra Ta’lim sifatini rivojlantirish bo‘limi yuritadigan akademik halollik buzilishlari reyestri (Akademik halollik nizomining 5-ilovasi),

– **dalolatnoma** – Akademik halollik nizomining 4-ilovasidagi shaklda tuziladigan akademik halollik qoidabuzarligi to‘g‘risidagi dalolatnoma,

– **Komissiya** – Akademik halollik nizomi asosida rektor buyrug‘i bilan tuziladigan Akademik halollik va etik me’yorlarga rioya etilishini nazorat qilish komissiyasi.

ANTI-PLAGIAT TIZIMI, SOZLAMALAR VA HISOBDAN FOYDALANISH

3.1. Universitetda o‘quv, ilmiy va o‘quv-uslubiy ishlarni rasmiy tekshirish faqat Tizimda o‘tkaziladi. Tizimdan foydalanish Universitet va Tizim yetkazib beruvchisi o‘rtasida elektron davlat xaridi natijasida tuzilgan 2025-yil 28-martdagi XNU-0810-son shartnoma asosida, tekshiriladigan hujjatlar soniga asoslangan litsenziya bo‘yicha amalga oshiriladi, Tizim boshqaruv panelida shartnoma turi (“документы”) va litsenziya qoldig‘i hisoblagichi (“Счетчик”) ko‘rsatiladi. Shartnoma, to‘lov va qabul qilish hujjatlari, administrator hisobi IT departamentida saqlanadi, Tizim administratori – IT departamenti. Shartnoma muddati tugashi yoki litsenziya hajmi tugashi oldidan uni uzaytirish 3.11-band bo‘yicha amalga oshiriladi.

3.2. Universitetda Tizimning quyidagi imkoniyatlaridan foydalaniladi:

– ishni internet manbalari, RefBooks bazasi va Universitet bazasi bilan solishtirish,

– xorijiy tildagi manbadan tarjima orqali o‘zlashtirishni aniqlash (foydalanuvchi tarjima qilingan manba tilini tanlaydi),

– ogohlantirishlar orqali matn manipulyatsiyasini aniqlash,

– SI ko‘rsatkichini aniqlash,

– “Задания” (Topshiriqlar) bo‘limida bitta topshiriq doirasida yuklangan ishlarni o‘zaro solishtirish,

– interaktiv hisobotda qonuniy mosliklarni hisobdan chiqarish va koeffitsientlarni qayta hisoblash, hisobotni ko‘rish rejimida muallif bilan bo‘lishish,

– protokolni Universitet shabloni asosida avtomatik to‘ldirish (8.1-band) va hisobotni QR-kodli PDF shaklida saqlash,

– foydalanuvchilar va bo‘linmalar kesimida statistika (“Статистика” bo‘limi).

3.3. Tizim matnni so‘z birikmalari bo‘yicha solishtiradi, shu sababli unda o‘zbek (lotin va kirill yozuvida), rus, ingliz va boshqa tillardagi ishlar tekshiriladi. O‘zbek tilidagi ishlarda manba boshqa yozuvda (lotin yoki kirill) bo‘lishi mumkinligi 7.4-band bo‘yicha hisobga olinadi.

3.4. Tizim sozlamalari IT departamenti tomonidan Tizimning “Настройки” bo‘limida 1-jadval bo‘yicha o‘rnatiladi va har o‘quv yili boshida, shuningdek Tizim yangilanganda tekshiriladi.

1-jadval.

Tizimning Universitetda qo‘llaniladigan sozlamalari

Sozlama (“Настройки” bo‘limi)	Belgilangan qiymat va maqsadi
Bo‘linmalar (“Подразделение”)	Universitet fakultetlari va kafedralari, statistika kafedralar va ta’lim dasturlari kesimida olinishi uchun
Hujjat turlari (“Типы документов”)	2-jadvaldagi ish turlari
O‘K-2 uchun ibora uzunligi	25 so‘z, O‘K-2 hisobotda ko‘rsatiladi
Iqtibos koeffitsienti va unikallik koeffitsienti	Hisobotda ko‘rsatiladi
Iqtiboslarni o‘xshashlik koeffitsientidan avtomatik chiqarish	Qo‘llanilmaydi, iqtiboslar ekspert tahlilida chiqariladi (7.1 va 7.3-bandlar)
Adabiyotlar ro‘yxatini o‘tkazib yuborish	Yoqilgan
O‘xshashlik koeffitsientlarining ogohlantirish chegaralari	O‘K-1 – 20 foiz, O‘K-2 – 5 foiz
SI kontenti indikatorining chegarasi	0,6 (60 foiz, 5.3-band)
Hisobot PDF faylidagi QR-kod	Yoqilgan, ma’lumotnomaga ilova qilingan hisobotning haqiqiyligini tekshirish uchun
Hujjatlarni Universitet bazasiga qo‘shish	Qo‘lda, ekspert qarori bilan (3.10-band), “tekshiruvsiz bazaga qo‘shish” imkoniyati o‘chirilgan
Hujjatni bazadan chiqarish	Faqat administrator tomonidan, kafedra mudirining asoslantirilgan so‘rovi bilan
O‘xshash hujjat mavjudligini tekshirish	Yoqilgan, bir ishning takroran yuklanishi aniqlanadi
“Научный руководитель / Эксперт” maydoni	Yoqilgan, tekshiruvchi yoki ilmiy rahbar ko‘rsatiladi
Birinchi kirishda qoidalarni qabul qilish	Yoqilgan, foydalanuvchi birinchi kirishda Tizimdan foydalanish qoidalarini qabul qiladi
Shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish qoidasi (“Положение о защите персональных данных”)	Universitetning shaxsga doir ma’lumotlarni qayta ishlash shartlari joylanadi

3.5. Tizimda quyidagi foydalanuvchi rollari qo‘llaniladi: “Админ” (administrator) – IT departamentining mas’ul xodimlari, “Деканат” – Akademik ishlar departamenti va dekanatlarning mas’ul xodimlari (bo‘linma ishlari bo‘yicha statistika va nazorat), “Преподаватель” – mas’ul tekshiruvchilar, fan o‘qituvchilari va ilmiy rahbarlar. Talabalar uchun Tizimda hisob ochilmaydi, ularning ishlari 3.8-bandga ko‘ra yuklanadi.

3.6. Hisobdan foydalanish qoidalari:

– Universitet hisobi faqat Universitet talabalari, magistrantlari, doktorantlari, PO va xodimlarining ishlarini tekshirish uchun ishlatiladi,

– har bir foydalanuvchi shaxsiy hisob orqali ishlaydi, login va parolni boshqa shaxsga berish va umumiy hisobdan foydalanish taqiqlanadi,

– boshqa tashkilot ishlari faqat rektorning yozma ruxsati va hamkorlik shartnomasi asosida, alohida bo‘linma va alohida hisobda tekshiriladi, bunday ishlar Universitet bazasiga qo‘shilmaydi, Universitet statistikasi va reyestrlariga kiritilmaydi,

– IT departamenti har chorakda Tizimdagi tekshiruvlarni foydalanuvchilar va bo‘linmalar kesimida ko‘rib chiqadi, belgilangan qoidalardan chetga chiqish holatlari to‘g‘risida 3 ish kuni ichida Akademik ishlar bo‘yicha prorektorga ma’lum qiladi.

3.7. Bepul onlayn servislar natijasi rasmiy tekshiruv sifatida qabul qilinmaydi.

3.8. Oliy ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘quv jarayoni 2024-yildan Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining markazlashgan axborot tizimi HEMIS (keyingi o‘rinlarda – HEMIS) da yuritiladi, talabalarning yozma topshiriqlari HEMIS talaba kabineti (student.nordicuniversity.org) orqali qabul qilinadi. Tizim va HEMIS o‘rtasida avtomatik ma’lumot almashinuvi yo‘qligi sababli ish fayli HEMIS dan yuklab olinib, Tizimga fan o‘qituvchisi yoki mas’ul tekshiruvchi tomonidan yuklanadi, qaror topshiriq bahosida aks etadi. Masofaviy ta’lim platformasi LMS (distance.nordicuniversity.org) oliy ta’lim dasturlari topshiriqlarini qabul qilish uchun ishlatilmaydi.

3.9. Ishlar matnli formatda (DOCX yoki matnli PDF) yuklanadi, skanerlangan (rasm ko‘rinishidagi) fayl tekshiruvga qabul qilinmaydi. Shaxsiy ma’lumotlar (pasport ma’lumotlari, JShShIR, telefon) va amaliyot bazasining tijorat siri hisoblangan ma’lumotlari yuklashdan oldin olib tashlanadi yoki niqoblanadi, Tizimda muallifning F.I.Sh. va ish mavzusi ko‘rsatiladi.

3.10. Kurs ishlari, amaliyot hisobotlari, BMI va dissertatsiyalarning yakuniy nusxalari o‘xshashlik hisoboti qabul qilinganda Universitet bazasiga qo‘shiladi va keyingi ishlar bilan solishtiriladi. Joriy yozma topshiriqlar baholangandan keyin, keyingi semestrlarda qayta topshirilishini aniqlash uchun bazaga qo‘shiladi. Qoralamalar va oraliq nusxalar bazaga qo‘shilmaydi, jurnalga yuboriladigan maqolalar muallif so‘roviga ko‘ra bazaga qo‘shilmasdan tekshiriladi. BMI va dissertatsiyalarning yakuniy nusxalari Universitet repozitoriysida (repository.nordicuniversity.org) belgilangan tartibda saqlanadi.

3.11. IT departamenti:

– litsenziya qoldig‘ini har oy kuzatadi, qoldiq o‘quv yili uchun rejalashtirilgan hajmning 20 foizidan kamayganda yoki shartnoma muddati tugashidan kamida 60 kun oldin Akademik ishlar bo‘yicha prorektorni xabardor qiladi va litsenziyani to‘ldirish yoki uzaytirish bo‘yicha talabnomani Moliya va rejalashtirish departamenti bilan tayyorlaydi, litsenziya hajmini har

o‘quv yili boshida 2-jadvaldagi majburiy va tanlanma tekshiruvlar soni asosida rejalashtiradi,

– kafedra mudiri so‘rovi asosida hisoblarni 3 ish kuni ichida ochadi, ishdan bo‘shagan xodim hisobini 3 ish kuni ichida bloklaydi, administrator huquqlarini yarim yilda bir marta qayta ko‘rib chiqadi,

– Tizimdan foydalanish bo‘yicha texnik yordam ko‘rsatadi, Tizim nosozligini yetkazib beruvchiga yuboradi, murojaatlarni “Axborot tizimlarini texnik qo‘llab-quvvatlash faoliyati to‘g‘risida nizom”da belgilangan muddatlarda ko‘rib chiqadi,

– “Статистика” bo‘limidan ma’lumotlarni eksport qilib, har semestr yakunida Ta’lim sifatini rivojlantirish bo‘limiga taqdim etadi,

– 3-ilovadagi yo‘riqnomani Tizim yangilanishlariga mos yangilaydi va mas’ul tekshiruvchilar uchun amaliy trening o‘tkazadi.

MAS’UL TEKSHIRUVCHILAR

4.1. Kafedra mudiri har o‘quv yili boshida, 15-sentabrgacha, kafedrada kamida bitta, bitiruvchi kafedralarda kamida ikkita mas’ul tekshiruvchini tayinlaydi va ro‘yxatni Akademik ishlar departamentiga va IT departamentiga yuboradi. 2026/2027 o‘quv yili uchun ro‘yxat Tartib kuchga kirgandan keyin 10 ish kuni ichida taqdim etiladi.

4.2. Mas’ul tekshiruvchi IT departamenti va Ta’lim sifatini rivojlantirish bo‘limi 3-ilova asosida o‘tkazadigan Tizimdan foydalanish va hisobotni talqin qilish treningidan o‘tgandan keyin tekshiruvga qo‘yiladi. Tizimda hisob oladigan har bir fan o‘qituvchisi va ilmiy rahbar ham shu treningdan o‘tadi, hisob trening ishtirokchilari ro‘yxati asosida ochiladi.

4.3. Tekshiruvchi o‘zi muallif bo‘lgan ishni tekshirmaydi. BMI va dissertatsiyalarning yakuniy tekshiruvini ishning ilmiy rahbari emas, boshqa mas’ul tekshiruvchi o‘tkazadi.

TEKSHIRILADIGAN ISHLAR VA ORIGINALLIK CHEGARALARI

5.1. Originallik tahlildan keyingi o‘xshashlik asosida hisoblanadi, ma’lumotnomada O‘K-1 ning boshlang‘ich va tahlildan keyingi qiymatlari ko‘rsatiladi.

5.2. Quyidagi hollarda umumiy ko‘rsatkichdan qat’i nazar ekspert tahlili majburiy: bitta manbaga moslik ish hajmining 5 foizidan oshsa, O‘K-2 5 foizdan oshsa, Tizim ogohlantirish bergan bo‘lsa, SI ko‘rsatkichi 60 foizdan yuqori bo‘lsa.

5.3. Kurs ishi, BMI, dissertatsiya, maqola va o‘quv nashrlarida SI ko‘rsatkichi 60 foizdan yuqori bo‘lsa, ish 7.6-band tartibida qo‘shimcha ko‘rib chiqiladi, ko‘rsatkichning o‘zi qoidabuzarlik dalili hisoblanmaydi. Sillabusda SI ga ruxsat berilgan topshiriqlarda ko‘rsatkich talabaning SI dan foydalanish to‘g‘risidagi izohi bilan solishtiriladi.

5.4. Originallik chegaralari Universitet Kengashi qarori bilan o‘zgartiriladi, BMI va magistrlik dissertatsiyasi chegaralari Akademik halollik

nizomining 7.3-bandiga o‘zgartirish bilan birga o‘zgartiriladi. Kafedra chegarani pasaytira olmaydi, sillabusda ko‘rsatgan holda oshirishi mumkin.

5.5. Tekshiriladigan ishlar, muddatlar va talablar 2-jadvalda belgilanadi.


2-jadval.

Tekshiriladigan ishlar va originallik talablari

Ish turi	Tekshiruv bosqichi va muddati	Kim tekshiradi	Talab
Mustaqil ish, esse, referat, loyiha (HEMIS topshiriqlari)	Har semestrda fan bo‘yicha kamida bitta yozma topshiriqdan tanlanma (har akademik guruhdan kamida 3 ta ish, fanlar qamrovi 5-jadval bo‘yicha), shuningdek shubha tug‘ilganda	Fan o‘qituvchisi	3-jadvaldagi o‘xshashlik oraliqlari bo‘yicha qaror
Kurs ishi	Himoyadan kamida 15 kalendar kun oldin	Ilmiy rahbar yoki mas’ul tekshiruvchi	Originallik kamida 60 foiz
Amaliyot hisoboti	Himoyadan kamida 15 kalendar kun oldin	Amaliyot rahbari yoki mas’ul tekshiruvchi	Kamida 60 foiz, tashkilotning standart shakllari hisobdan chiqariladi
BMI (bakalavriat)	Oraliq – himoyadan kamida 30 kalendar kun oldin, yakuniy – kamida 20 kalendar kun oldin	Mas’ul tekshiruvchi (ilmiy rahbar emas)	Kamida 60 foiz – yakuniy attestatsiyaga ruxsat sharti
Magistrlik dissertatsiyasi	Oraliq va yakuniy, BMI muddatlarida	Mas’ul tekshiruvchi (ilmiy rahbar emas)	Kamida 65 foiz
PhD va DSc dissertatsiyalari	Ilmiy seminarga taqdim etishdan oldin	Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti	Oliy attestatsiya komissiyasi talablari bo‘yicha
Ilmiy maqola, tezis	Nashrga yuborishdan oldin	Mas’ul tekshiruvchi yoki Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti	Kamida 75 foiz yoki jurnalning yuqoriroq talabi
Darslik, o‘quv qo‘llanma, monografiya	Nashrga tavsiya etish uchun muhokamadan oldin	Mas’ul tekshiruvchi, Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti	Darslik va o‘quv qo‘llanma – kamida 70 foiz, monografiya – kamida 75 foiz

TEKSHIRISH TARTIBI

6.1. Tekshiruv 1-sxemada ko‘rsatilgan bosqichlarda o‘tkaziladi, Tizimdagi amallar 3-ilovadagi yo‘riqnoma bo‘yicha bajariladi.



1-sxema. Originallik tekshiruvi jarayoni

6.2. Joriy yozma topshiriqlar: fan o‘qituvchisi topshiriq shartida Akademik halollik nizomiga muvofiq SI dan foydalanish rejimini ko‘rsatadi, talaba ishni HEMIS orqali topshiradi, o‘qituvchi tanlangan ishlarni Tizimda tekshiradi va 5 ish kuni ichida qaror qabul qilib, talabaga fikr-mulohaza beradi. Bir guruh ishlari Tizimning “Задания” bo‘limida bitta topshiriq sifatida yuklanganda ular o‘zaro ham solishtiriladi. Tahlildan keyingi o‘xshashlik 20 foizdan oshsa yoki manipulyatsiya alomatlari aniqlansa, o‘qituvchi 1 ish kuni ichida dalolatnoma tuzadi (9.3-band).

6.3. Kurs ishi va amaliyot hisobotining elektron nusxasi himoyadan kamida 15 kalendar kun oldin HEMIS orqali yoki kafedraga elektron shaklda topshiriladi, tekshiruvchi 3 ish kuni ichida tekshiruv ma’lumotnomasini rasmiylashtiradi. Chegaradan o‘tmagan ish bir marta, 5 ish kuni muddat bilan qayta ishlashga qaytariladi, qayta tekshiruv 2 ish kuni ichida o‘tkaziladi va himoyadan oldin yakunlanadi.

6.4. BMI va magistrlik dissertatsiyasining oraliq tekshiruvi himoyadan kamida 30 kalendar kun oldin o‘tkaziladi, oraliq nusxa Universitet bazasiga qo‘shilmaydi, natija talabaga tavsiya sifatida yetkaziladi. Yakuniy tekshiruv uchun talaba himoyadan kamida 20 kalendar kun oldin yakuniy elektron nusxani mas’ul tekshiruvchiga topshiradi, u 3 ish kuni ichida tekshiruv va ekspert tahlilini o‘tkazib, ma’lumotnomani rasmiylashtiradi. Qayta ishlashga qaytarilgan ish 5 ish kuni ichida qayta topshiriladi va 2 ish kuni ichida qayta tekshiriladi. Ilmiy rahbar va kafedra mudiri imzolagan ma’lumotnoma o‘xshashlik hisobotining PDF nusxasi bilan yakuniy attestatsiya komissiyasiga taqdim etiladigan hujjatlarga ilova qilinadi.

6.5. Ma’lumotnomada quyidagi qarorlardan biri qayd etiladi va o‘xshashlik hisoboti Tizimda unga mos yakunlanadi:

– “himoyaga (nashrga) tavsiya etiladi” – hisobot qabul qilinadi, yakuniy nusxa 3.10-bandga muvofiq Universitet bazasiga qo‘shiladi,

– “qayta ishlashga qaytariladi” (bir marta, 5 ish kuni) – hisobot tuzatishga yuborilgan deb belgilanadi,

– “Komissiyaga yuboriladi” (manipulyatsiya, boshqa shaxs ishi, buyurtma ish yoki SI matnini o‘z ishi sifatida topshirish alomatlari aniqlanganda) – hisobotdagi o‘zgarishlar saqlanadi va u Komissiya qaroriga qadar yakunlanmaydi, Komissiya qoidabuzarlikni tasdiqlasa, hisobot rad etilgan (diskvalifikatsiya) deb belgilanadi.

Qayta topshirilgan ish ham chegaradan o‘tmasa, u joriy attestatsiya davrida himoyaga qo‘yilmaydi va dalolatnoma tuziladi (9.3-band).

6.6. Himoyaga taqdim etilgan bosma nusxa tekshirilgan elektron nusxaga mos bo‘lishi shart, nomuvofiqlik aniqlansa, tekshiruv natijasi bekor qilinadi.

6.7. Ilmiy maqola va tezis nashrga yuborilishidan oldin tekshiriladi, talaba hammuallif bo‘lgan maqola uchun ilmiy rahbar javobgar. Darslik, o‘quv qo‘llanma va monografiya bo‘yicha ma’lumotnoma nashrga tavsiya paketining majburiy qismi bo‘lib, ma’lumotnomasiz material muhokamaga qo‘yilmaydi.

6.8. O‘xshashlik hisoboti muallifga Tizimning ko‘rish rejimidagi (tahrirlash huquqisiz) havolasi orqali yoki PDF nusxasi sifatida beriladi, tekshiruvchi asosiy mosliklar va tuzatish talab qilinadigan joylarni tushuntiradi.

HISOBOTNI TALQIN QILISH VA EKSPERT BAHOLASH

7.1. Ekspert o‘xshashlik hisobotida quyidagilarni qonuniy moslik sifatida qabul qilib, fragment yoki manbani hisobdan chiqaradi: adabiyotlar ro‘yxati, to‘g‘ri rasmiylashtirilgan iqtiboslar (iqtiboslarni chiqarish belgisi orqali), titul varag‘i, mundarija va standart shakllar, me’yoriy hujjatlar matni, formulalar va umumqabul qilingan atamalar, muallifning shu ishining shu bosqichdagi avvalgi tekshiruv nusxasi (oraliq yoki qayta tekshiruv). Tizim hisobdan chiqarilgan qismlarni raqamlangan ro‘yxatda saqlaydi va qayta hisoblangan koeffitsientlarni asl qiymat bilan birga ko‘rsatadi, har bir chiqarish asosi hisobotga izoh sifatida yoziladi va ma’lumotnomada qayd etiladi.

7.2. Ekspert tahlili quyidagi ketma-ketlikda o‘tkaziladi: koeffitsientlar va ogohlantirishlar ko‘rib chiqiladi, manbalar ro‘yxatidagi ulushi eng katta manbalar va eng uzun 10 ta fragment tahlil qilinadi, qonuniy mosliklar hisobdan chiqariladi, iqtibos va havolalar rasmiylashtirilishi baholanadi, ogohlantirishlar va SI ko‘rsatkichi tekshiriladi, manbalar mavjudligi tekshiriladi (7.7-band), xulosa va qaror ma’lumotnomaga yoziladi.

7.3. Qonuniy moslik o‘xshashlik koeffitsientidan chiqariladi, ammo kurs ishi va BMI da to‘g‘ri rasmiylashtirilgan iqtiboslar ham ish hajmining 25

foizidan oshmasligi kerak (iqtibos koeffitsienti bo‘yicha nazorat qilinadi), aks holda ish qayta ishlashga qaytariladi. Iqtibos koeffitsienti barcha qo‘shtirnoq ichidagi matnni (hujjat va tashkilot nomlarini ham) hisoblagani sababli yakuniy baho tekshiruvchiniki.

7.4. Manbasiz ko‘chirma, qo‘shtirnoqsiz so‘zma-so‘z ko‘chirilgan yirik qismlar, xorijiy manbani havolasiz tarjima qilish va parafraz dasturi bilan o‘zgartirilgan matn noqonuniy moslik hisoblanadi. Avval baholangan ishni ruxsatsiz qayta topshirish Universitet bazasidagi moslik orqali aniqlanadi va qoidabuzarlik hisoblanadi. Xorijiy manbalardan foydalanilgan ishlarda tekshiruvchi Tizimning tarjima tekshiruvini tegishli til juftligi bilan qo‘llaydi. O‘zbek tilidagi ishda boshqa yozuvdagi (lotin yoki kirill) manbadan ko‘chirish shubhasi bo‘lsa, matnning boshqa yozuvga o‘girilgan nusxasi ham tekshiriladi.

7.5. Tizim ogohlantirish bergan bo‘lsa, tekshiruvchi hisobotda belgilangan joylarni ko‘rib chiqadi. Harflarni almashtirish, ko‘rinmaydigan belgilar yoki sun’iy oraliqlar qasddan qo‘llanganligi aniqlansa, dalolatnoma tuziladi va holat Komissiyaga yuboriladi, daraja va chora Akademik halollik nizomi bo‘yicha belgilanadi. Parafraz belgilari 7.4-band bo‘yicha baholanadi. Ogohlantirishning texnik sababi (masalan, boshqa dasturdan nusxalangan formatlash) aniqlansa, bu ma’lumotnomada izohlanadi.

7.6. SI ko‘rsatkichi ehtimoliy baho bo‘lib, ayniqsa qisqa matnlarda xato berishi mumkin. Ko‘rsatkich 61–80 foiz bo‘lsa, o‘qituvchi (ilmiy rahbar) topshiriqdagi SI rejimi va talabaning oshkor qilish izohini, qoralamalar va fayl versiyalarini ko‘rib chiqadi. Ko‘rsatkich 80 foizdan yuqori bo‘lsa yoki oshkor qilinmagan SI dan foydalanish alomatlari bo‘lsa, ish yuzasidan og‘zaki suhbat majburiy. Talaba ish mazmunini tushuntira olmasa, uydirma manbalarga havolalar aniqlansa yoki SI dan foydalanish oshkor qilinmagan bo‘lsa, dalolatnoma tuziladi, daraja va chora Akademik halollik nizomi bo‘yicha belgilanadi.

7.7. BMI, dissertatsiya va maqolalarda mas’ul tekshiruvchi adabiyotlar ro‘yxatidan tasodifiy tanlangan kamida 5 ta manbaning mavjudligini tekshiradi.

NATIJALARNI RASMIYLASHTIRISH, SAQLASH VA E’TIROZ

8.1. Kurs ishi, amaliyot hisoboti, BMI, dissertatsiya, maqola va o‘quv nashri bo‘yicha ma’lumotnoma (1-ilova) o‘xshashlik hisobotining QR-kodli PDF nusxasi bilan rasmiylashtiriladi. Protokol shabloni 1-ilova asosida yetkazib beruvchi bilan kelishib sozlanadi, shundan keyin ma’lumotnoma Tizimning “Протоколы” ustunidan chop etiladigan protokol shaklida rasmiylashtiriladi, sozlangunga qadar 1-ilova to‘ldiriladi. Joriy topshiriqlar bo‘yicha ma’lumotnoma faqat buzilish holatida tuziladi.

8.2. Tekshiruvlar reyestri (2-ilova) kafedrada elektron yuritiladi, har oy yangilanadi va semestr tugaganidan keyin 5 ish kuni ichida Ta’lim sifatini rivojlantirish bo‘limiga taqdim etiladi. Maqola, monografiya va

dissertatsiyalar bo‘yicha reyestrni Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti yuritadi.

8.3. Ta’lim sifatini rivojlantirish bo‘limi dalolatnoma kelib tushgan kuni uni Buzilishlar reyestriga kiritadi, tekshiruvlar reyestridagi tegishli yozuvda dalolatnoma raqami ko‘rsatiladi.

8.4. BMI va dissertatsiyalar bo‘yicha ma’lumotnomalar ishning o‘zi bilan belgilangan arxiv muddatida, joriy topshiriqlar hisobotlari kamida bir o‘quv yili, buzilish holatlari materiallari talabaning o‘qish muddati tugaguniga qadar saqlanadi. Natijalar bilan faqat muallif, fan o‘qituvchisi, ilmiy rahbar, kafedra mudiri, yakuniy attestatsiya komissiyasi (BMI va dissertatsiyalar bo‘yicha), Akademik ishlar departamenti, Ta’lim sifatini rivojlantirish bo‘limi, Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti (ilmiy ishlar bo‘yicha) va Komissiya tanishadi, IT departamenti hisobotlarga faqat texnik yordam doirasida kiradi.

8.5. Muallif ma’lumotnoma bilan tanishgan kundan boshlab 2 ish kuni ichida kafedra mudiriga yozma e’tiroz berishi mumkin. Kafedra mudiri boshqa mas’ul tekshiruvchini jalb qilib, e’tirozni 3 ish kuni ichida ko‘rib chiqadi, texnik xato (qonuniy moslik hisobdan chiqarilmagani, ishning o‘z nusxasi bilan solishtirilishi) aniqlansa, hisobot qayta ko‘rib chiqiladi yoki qayta tekshiruv o‘tkaziladi. Kafedra qaroriga rozi bo‘lmagan talaba Akademik halollik nizomida belgilangan tartibda apellyatsiya beradi.

ANIQLANGAN HOLATLAR BO‘YICHA CHORALAR

9.1. Tekshiruvda aniqlangan qoidabuzarliklar Akademik halollik nizomi asosida ko‘rib chiqiladi: talabalarning 1-darajali holatlari – kafedra majlisida, 2- va 3-darajali holatlari – Komissiyada, magistrant, doktorant va izlanuvchining ilmiy ishiga oid holatlar – Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti vakili ishtirokida Komissiyada, PO va xodimlarga oid holatlar – Komissiya xulosasi asosida rektor tomonidan. Daraja Akademik halollik nizomidagi mezonlar bo‘yicha yakuniy belgilanadi.

9.2. Tekshiruv natijalari bo‘yicha qarorlar Akademik halollik nizomining 3- va 4-jadvallari asosida 3-jadvalda umumlashtiriladi. Daraja va chora shu nizomning 8.4-bandidagi dastlabki tekshiruv va ko‘rib chiqish natijasida yakuniy belgilanadi.

3-jadval.

Tekshiruv natijalari bo‘yicha choralar

Holat	Qaror (Akademik halollik nizomi bo‘yicha)	Ko‘rib chiqish va daraja
Joriy yozma topshiriqda tahlildan keyingi o‘xshashlik 20 foizgacha	Ish qabul qilinadi, iqtiboslarda kamchilik bo‘lsa – tuzatish talab qilinadi	Fan o‘qituvchisi
Joriy yozma topshiriqda tahlildan keyingi o‘xshashlik 20 foizdan 40 foizgacha	Ish tuzatib qayta topshiriladi	1-daraja, kafedra majlisi

Joriy yozma topshiriqda tahlildan keyingi o‘xshashlik 40 foizdan 60 foizgacha	Topshiriq bekor qilinadi, 0 ball	2-daraja, Komissiya
Joriy yozma topshiriqda tahlildan keyingi o‘xshashlik 60 foizdan yuqori	Fan bo‘yicha F bahosi, ish Komissiyaga yuboriladi	2- yoki 3-daraja, Komissiya
Kurs ishi yoki amaliyot hisoboti chegaradan o‘tmagan	Qayta ishlashga qaytariladi, qayta topshirishda ham o‘tmasa – himoyaga qo‘yilmaydi	Qayta topshirishda o‘tmasa yoki katta hajmdagi plagiat – 2-daraja, Komissiya
BMI yoki magistrlik dissertatsiyasi originallik talabiga javob bermagan	Himoyaga qo‘yilmaydi va qayta ishlashga qaytariladi	Qasddan plagiat aniqlansa – 3-daraja, Komissiya
Matnni manipulyatsiya qilish (ogohlantirish tasdiqlangan)	Topshiriq natijasi bekor qilinadi (0 ball) yoki fan, BMI natijasi bekor qilinadi	Qasd va hajmga ko‘ra 2- yoki 3-daraja, Komissiya
Buyurtma ish, boshqa shaxs nomidan topshirish	Fan yoki BMI natijasi bekor qilinadi	3-daraja, Komissiya
SI dan foydalanishni kichik hajmda oshkor qilmaslik	Yozma ogohlantirish, topshiriqni tuzatib qayta topshirish	1-daraja, kafedra majlisi
SI yaratgan matnni o‘z ishi sifatida topshirish	Nazorat yoki topshiriq natijasi bekor qilinadi (0 ball)	2-daraja, Komissiya
PO yoki xodim ishida plagiat	Nashrga tavsiya bekor qilinadi, nashr qilingan bo‘lsa – nashrni qaytarib olish tashabbusi	Komissiya xulosasi asosida rektor, intizomiy chora, samaradorlik ko‘rsatkichlarida (KPI) hisobga olish

9.3. Qoidabuzarlik alomatini aniqlagan tekshiruvchi 1 ish kuni ichida dalolatnoma tuzib, talabalarga oid holatlarda kafedra mudiriga, PO va xodimlarga oid holatlarda Komissiya kotibiga topshiradi, nusxasini shu kuni Ta’lim sifatini rivojlantirish bo‘limiga yuboradi, korrupsiyaviy harakat alomatlari bo‘lsa, bir vaqtda Komplayens nazorat bo‘linmasiga xabar beradi. Kafedra mudiri darajani dastlabki baholashdan oldin Buzilishlar reyestridan shaxsning avvalgi holatlari to‘g‘risida ma’lumot oladi. Dalolatnomaga o‘xshashlik hisobotining PDF nusxasi va tekshiruv ma’lumotnomasi ilova qilinadi. Dastlabki tekshiruv, eshituv, qaror va apellyatsiya Akademik halollik nizomida belgilangan muddatlarda o‘tkaziladi, o‘xshashlik koeffitsienti yoki SI ko‘rsatkichi yagona dalil sifatida qabul qilinmaydi.

9.4. 1-darajali holatlarda qayta topshirilgan ish Akademik halollik nizomiga ko‘ra maksimal ballning 50 foizigacha baholanadi, talaba Axborot-resurs markazining akademik yozuv bo‘yicha mashg‘ulotiga yo‘naltiriladi.

9.5. Ko‘rilgan chora va uning natijasi (qayta topshirish natijasi, kafedra yoki Komissiya qarori) tekshiruvlar reyestrida va Buzilishlar reyestrida qayd

etiladi, nazorat natijasini bekor qilish to‘g‘risidagi qarorlar HEMIS ga Akademik halollik nizomida belgilangan tartibda kiritiladi.

TALABALAR VA PO NI TANISHTIRISH, PROFILAKTIKA

10.1. Talabalar Tartib bilan quyidagicha tanishtiriladi:

– birinchi kurs talabalari moslashuv haftasida (Orientation Week) akademik halollik, iqtibos keltirish va SI dan foydalanish qoidalari bilan tanishtiriladi va birinchi semestrning 4-haftasigacha akademik halollik deklaratsiyasini (Akademik halollik nizomining 1-ilovasi) imzolaydi. 2026-yil 7–9-sentabr kunlari o‘tkazilgan moslashuv haftasida 2 500 nafar birinchi kurs talabasi Universitetning akademik muhiti, madaniyati va raqamli imkoniyatlari bilan tanishtirildi,

– magistrantlar o‘quv yili boshidagi tanishuv kunida (Orientation Day) tanishtiriladi, 2026-yil 3-oktabrda 1 000 dan ortiq magistrant ishtirok etgan tadbirda odob-axloq qoidalari, talabaning huquq va majburiyatlari, mustaqil ta’lim, akademik mas’uliyat va ilmiy izlanish masalalari yoritildi,

– har bir fan sillabusida akademik halollik bandi (iqtibos uslubi, anti-plagiat talabi, topshiriqlar bo‘yicha SI rejimi, qoidabuzarlik oqibatlari) ko‘rsatiladi, sillabus HEMIS dagi fan resurslarida joylanadi va birinchi mashg‘ulotda tushuntiriladi,

– kurs ishi, BMI va dissertatsiya rahbarlari mavzu berilganda talabani tekshiruv muddatlari va chegaralari (2-jadval) bilan tanishtiradi, ishga originallik bayonoti (Akademik halollik nizomining 1-ilovasi) ilova qilinadi,

– davom etayotgan talabalar uchun har o‘quv yili boshida Akademik halollik nizomiga ko‘ra eslatma seminari o‘tkaziladi,

– Axborot-resurs markazi (keyingi o‘rinlarda – ARM) akademik yozuv va iqtibos keltirish bo‘yicha semestrda kamida bir marta seminar o‘tkazadi,

– Tartib Universitet rasmiy saytida va HEMIS da e’lon qilinadi, Tartib kuchga kirgandan keyin bir oy ichida fakultetlarda talabalar uchun tushuntirish mashg‘ulotlari o‘tkaziladi.

10.2. PO bilan ishlash:

– har o‘quv yili boshida PO uchun akademik halollik, SI dan mas’uliyatli foydalanish va mualliflik huquqi bo‘yicha majburiy seminar o‘tkaziladi (bayonnomasi HR va xodimlar malakasini oshirish departamentida saqlanadi), yangi PO ishga qabul qilingan kundan boshlab 5 ish kuni ichida shu departament tomonidan imzo varag‘i bilan tanishtiriladi,

– Universitet Kengashining 2025-yil 25-dekabrdagi 12-son yig‘ilishida ta’lim va ilmiy tadqiqotlarda zamonaviy texnologiyalardan mas’uliyatli, shaffof va samarali foydalanish tartib-qoidalarini belgilovchi SI dan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnoma tasdiqlangan,

– 2026-yil 5–9-yanvar kunlari 80 dan ortiq PO ishtirok etgan seminar-treninglarda pedagogik texnologiyalar va ta’limda SI dan foydalanish masalalari ko‘rilgan,

– 2026-yil 4-sentabrda PO uchun “Raqamli platformalar, HEMIS va sun’iy intellekt” seminar-treningi o‘tkazilgan, unda Vazirlikning Raqamli ta’lim va sun’iy intellektni rivojlantirish markazi direktori A. Abdullayev SI etikasi, akademik halollik va mualliflik huquqi masalalarini yoritgan,

– Tartib kuchga kirgandan keyin bir oy ichida u kafedra majlislarida muhokama qilinadi (bayonnomada qayd etiladi), IT departamenti va Ta’lim sifatini rivojlantirish bo‘limi barcha mas’ul tekshiruvchilar uchun 3-ilova asosida Tizim bo‘yicha amaliy trening o‘tkazadi,

– Tizimda hisob faqat Tartib bilan tanishgan va treningdan o‘tgan PO ga ochiladi (4.2-band), birinchi kirishda foydalanuvchi Tizimdan foydalanish qoidalarini qabul qiladi (1-jadval),

– topshiriqlar individual variantlar va bosqichma-bosqich topshirish asosida loyihalanadi.

10.3. Tanishtirish dalillari (ishtirokchilar ro‘yxati, imzolangan deklaratsiyalar, sillabuslar, kafedra majlisi bayonnomalari, Tizim bo‘yicha trening ishtirokchilari ro‘yxati) dekanat va kafedrada saqlanadi va “Talabalar va professor-o‘qituvchilarni akademik halollik va etika qoidalari bilan tanishtirilganligi to‘g‘risida ma’lumot” hamda “Akademik halollik va etika bo‘yicha o‘tkazilgan treninglar (seminarlar, ma’ruzalar) to‘g‘risida ma’lumot”da umumlashtiriladi.

MAS’ULLAR

11.1. Tartib ijrosi bo‘yicha mas’ullar 4-jadvalda belgilanadi.

4-jadval.

Mas’ullar va vazifalar

Mas’ul	Vazifalar
IT departamenti (boshlig‘i X. Topilov)	Tizim administratori: shartnoma va litsenziya, sozlamalar (1-jadval), hisoblar va rollar, hisobdan foydalanish nazorati, texnik yordam, statistika eksporti, 3-ilovadagi yo‘riqnoma va trening
Akademik ishlar departamenti (boshlig‘i O. Raximberdiyev)	Tekshiruvlarni tashkil etish, mas’ul tekshiruvchilar ro‘yxati, ta’lim platformalari mutaxassislari (J. Alimov, N. Salimov) orqali HEMIS topshiriqlari bo‘yicha PO ga maslahat
Ta’lim sifatini rivojlantirish bo‘limi (boshlig‘i I. Abdug‘aniyev)	Buzilishlar reyestri, semestr tahlili (4-ilova) va yillik tahlil, tanishtirish mashg‘ulotlari, ichki auditda tekshiruvlar sifatini baholash
Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti	Maqola, monografiya va dissertatsiyalar tekshiruvi va ularning reyestri
Kafedra mudirlari	Mas’ul tekshiruvchilarni tayinlash, ma’lumotnomalarni imzolash, dalolatnomalar bo‘yicha dastlabki tekshiruv, reyestr va semestr tahlili

Fan o‘qituvchilari, ilmiy rahbarlar, mas’ul tekshiruvchilar	Tekshiruv, ekspert tahlil, fikr-mulohaza, dalolatnoma tuzish
Fakultet dekanatlari (E. Umarov, Z. Xamidova)	Talabalarni tanishtirish, deklaratsiyalarni saqlash
ARM (boshlig‘i Sh. Ibrohimova)	Iqtibos keltirish bo‘yicha maslahat va akademik yozuv mashg‘ulotlari
Komissiya	2- va 3-darajali holatlarni ko‘rib chiqish, yillik monitoring hisoboti

11.2. Umumiy nazoratni Akademik ishlar bo‘yicha prorektor M. Amonboyev, ilmiy nashrlar va dissertatsiyalar bo‘yicha – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor O. Qo‘ysinov amalga oshiradi.

MONITORING, TAHLIL VA HISOBOT

12.1. Kafedra har semestr yakunida reyestr asosida tekshiruv natijalarini kafedra majlisida tahlil qiladi. Ta’lim sifatini rivojlantirish bo‘limi semestr tugaganidan keyin 15 ish kuni ichida Tizim statistikasi, kafedralar reyestrlari va Buzilishlar reyestri asosida semestr tahlilini 4-ilova shaklida kafedralar va ta’lim dasturlari kesimida tayyorlaydi. Tahlilga faqat Universitet ishlari kiritiladi (3.6-band).

12.2. Ta’lim sifatini rivojlantirish bo‘limi har yili 15-iyungacha o‘quv yili bo‘yicha yillik tahliliy ma’lumot tayyorlaydi, u Komissiya raisi 1-iyulgacha tayyorlaydigan yillik monitoring hisobotiga kiritiladi, hisobot Universitet Kengashida muhokama qilinadi. Kengash qarori bilan trening mavzulari, topshiriqlar shakli, originallik chegaralari, Tizim sozlamalari va litsenziya hajmi bo‘yicha choralar belgilanadi, ularning ijrosi keyingi yillik hisobotda aks ettiriladi. Natijalarning umumlashtirilgan qismi shaxsiy ma’lumotlarsiz Universitet saytida e’lon qilinadi.

12.3. Maqsadli ko‘rsatkichlar 5-jadvalda belgilanadi.

5-jadval.

Maqsadli ko‘rsatkichlar

Ko‘rsatkich	Maqsadli qiymat
BMI va magistrlik dissertatsiyalarini tekshirish qamrovi	100 foiz
Kurs ishlari va amaliyot hisobotlarini tekshirish qamrovi	100 foiz
Semestrda tanlanma tekshiruv o‘tkazilgan fanlar ulushi	2026/2027 o‘quv yilida kamida 80 foiz, 2027/2028 o‘quv yilidan 100 foiz
Birinchi tekshiruvda chegaradan o‘tgan BMI ulushi	Kamida 90 foiz

Mas’ul tekshiruvchisi tayinlangan va Tizim bo‘yicha treningdan o‘tgan kafedralar	100 foiz
Muddatida rasmiylashtirilgan ma’lumotnomalar ulushi	Kamida 95 foiz
Litsenziya qoldig‘i tugab, tekshiruv to‘xtagan kunlar	Yil davomida 0 kun

12.4. Tartib kuchga kirgan kundan qo‘llaniladi, tekshiruvlar reyestri shu kundan yuritiladi. Birinchi semestr tahlili 2026/2027 o‘quv yili kuzgi semestri yakunlari bo‘yicha tayyorlanadi, birinchi yillik monitoring hisoboti 2027-yil 1-iyulgacha tayyorlanadi va Universitet Kengashida muhokama qilinadi.

YAKUNIY QOIDALAR

13.1. Mazkur Tartib Universitet Kengashi qarori bilan ma’qullanib, rektor buyrug‘i bilan tasdiqlangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

13.2. Tartib Universitet rasmiy saytining me’yoriy hujjatlar bo‘limida, repozitoriyda va HEMIS da e’lon qilinadi.

13.3. Tartibga o‘zgartirishlar IT departamenti, Akademik ishlar departamenti yoki Ta’lim sifatini rivojlantirish bo‘limi taklifi bilan Universitet Kengashi qarori asosida kiritiladi. Tizim boshqa anti-plagiat tizimiga almashtirilganda bu rektor buyrug‘i bilan e’lon qilinadi va Tartibga tegishli o‘zgartirish kiritiladi.

IT departamenti boshlig‘i **X. Topilov**

Ta’lim sifatini rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i **I. Abdug‘aniyev**

Xalqaro Nordik universiteti nashriyoti bosh muharriri **M. Mamadaliyev**

1-ilova

ORIGINALLIK TEKSHIRUVI MA’LUMOTNOMASI № ___

20___-yil “___” _____

Ko‘rsatkich	Ma’lumot
Ish turi (kurs ishi, amaliyot hisoboti, BMI, magistrlik dissertatsiyasi, maqola, o‘quv nashri, monografiya)	
Ish mavzusi	
Muallif (F.I.Sh., guruh yoki lavozim), ta’lim dasturi, kafedra	
Ilmiy rahbar (amaliyot rahbari)	
Tizim va hisobot identifikatori	StrikePlagiarism.com, ID:
Tekshiruv sanasi va bosqichi (oraliq, yakuniy, qayta)	
Tekshiruv tili, tarjima tekshiruvi (til juftligi)	
O‘K-1, foiz: boshlang‘ich / tahlildan keyingi	
O‘K-2, foiz	
Originallik, foiz (talab: ____ foiz)	
Iqtibos koeffitsienti, foiz	
Eng katta bitta manbaga moslik, foiz	
SI ko‘rsatkichi, foiz	
Ogohlantirishlar (yo‘q yoki bor, izoh)	
Hisobdan chiqarilgan qismlar va asoslari	
Tekshirilgan manbalar mavjudligi (kamida 5 ta)	
Ekspert xulosasi	
Qaror (himoyaga yoki nashrga tavsiya etiladi, qayta ishlashga qaytariladi va muddati, Komissiyaga yuboriladi)	
Tizimdagi holat (qabul qilindi va bazaga qo‘shildi, tuzatishga yuborildi, Komissiya qaroriga qadar saqlandi)	

Mas’ul tekshiruvchi: _____ Ilmiy rahbar: _____

Kafedra mudiri: _____ Muallif tanishdi: _____

Ma’lumotnomaga o‘xshashlik hisobotining QR-kodli PDF nusxasi ilova qilinadi.

2-ilova

ORIGINALLIK TEKSHIRUVLARI REYESTRI

_____ kafedrasi (bo‘limi), 20___/20___ o‘quv yili


№	Sana	Muallif, guruh yoki lavozim	Ish turi va mavzusi	Hisobot ID	O‘K-1, foiz (boshl. / tahlildan keyin)	Originallik, foiz	SI, foiz	Ogohlantirish	Qaror	Ko‘rilgan chora va natijasi	Tekshiruvchi
1	___.___.20__										
2	___.___.20__										
3	___.___.20__										

Reyestr elektron yuritiladi va har oy yangilanadi. Qaror: T – tavsiya etildi, Q – qayta ishlashga qaytarildi, K – Komissiyaga yuborildi. “Ogohlantirish” ustunida Tizim ogohlantirishi bor yoki yo‘qligi, “Ko‘rilgan chora va natijasi” ustunida qayta tekshiruv sanasi va natijasi, dalolatnoma raqami, kafedra yoki Komissiya qarori qayd etiladi.

3-ilova

STRIKEPLAGIARISM TIZIMIDA ISHNI TEKSHIRISH BO‘YICHA QISQA YO‘RIQNOMA

№	Bosqich	Tizimdagi amal	Natija
1	Kirish	panel.strikeplagiarism.com manziliga IT departamenti bergan shaxsiy hisob bilan kirish, interfeys tilini tanlash (“Язык”), birinchi kirishda qoidalarni qabul qilish	Foydalanuvchi o‘z hujjatlarini ko‘radi (“Показать только мои”)
2	Faylni tayyorlash	Ishning matnli nusxasini (DOCX yoki matnli PDF) tayyorlash, shaxsiy ma’lumotlarni niqoblash (3.9-band)	Tekshiruvga yaroqli fayl
3	Yuklash	“Документы” bo‘limida faylni yuklash maydoniga qo‘yish yoki “Загрузите файл” orqali tanlash, “Название” (ish mavzusi), “Автор”, “Научный руководитель / Эксперт” va hujjat turini ko‘rsatish, xorijiy manba ehtimoli bo‘lsa, tarjima tekshiruvi tilini tanlash. Ko‘p ishlar “Массовый импорт документа” orqali, bir guruh topshiriqlari “Задания” bo‘limida topshiriq yaratib yuklanadi	Ish ro‘yxatda paydo bo‘ladi, “Статус” ustunida tekshiruv holati ko‘rsatiladi
4	Hisobotni ochish	Tekshiruv tugagach “Отчет” ustunidagi belgi orqali o‘xshashlik hisobotini ochish, ro‘yxatda O‘K-1 (“КП1”), unikallik, iqtibos (“КЦ”) va SI (“ИИ”) qiymatlari ko‘rinadi	Interaktiv hisobot
5	Ekspert tahlili	Manbalar ro‘yxati, eng uzun 10 ta fragment, ogohlantirishlar va SI bo‘limini ko‘rish, qonuniy moslikni fragment yoki manba yonidagi qabul qilish belgisi bilan, iqtiboslarni iqtibos belgisi bilan hisobdan chiqarish, har bir chiqarishga izoh yozish (7.1–7.7-bandlar)	Qayta hisoblangan koeffitsientlar (yangi qiymat qizil, asl qiymat kulrang rangda)
6	Qaror	Hisobot sarlavhasidagi saqlash tugmasi (“SAVE / SUBMIT”) orqali izoh bilan: qabul qilish va Universitet bazasiga qo‘shish, tuzatishga yuborish yoki Komissiya qaroriga qadar o‘zgarishlarni saqlash (6.5-band)	Hisobot holati qarorga mos
7	Rasmiylashtirish	Hisobotni QR-kodli PDF shaklida saqlash, “Протоколы” ustunidan protokolni chop etish yoki 1-ilovani to‘ldirish, reyestrga yozuv kiritish, qoidabuzarlik alomatida dalolatnoma tuzish	Ma’lumotnoma, reyestr yozuvi
8	Muallifga yetkazish	Hisobotni ko‘rish rejimidagi havola yoki PDF orqali muallifga berish, asosiy mosliklarni tushuntirish	Fikr-mulohaza



1-rasm. Tizimning “Документы” bo‘limi: menyu va hujjatlar ro‘yxati ustunlari (ro‘yxatdagi ma’lumotlar yashirilgan)

Tizim interfeysi yetkazib beruvchi tomonidan yangilanganda tugma va bo‘lim nomlari o‘zgarishi mumkin, bunday holda IT departamenti yo‘riqnomani yangilaydi.

4-ilova

ORIGINALLIK TEKSHIRUVLARI BO‘YICHA SEMESTR TAHLILI

_____ (kafedra, fakultet yoki Universitet), 20___/20___ o‘quv yili, ___ semestr

№	Ko‘rsatkich	Manba	Oldingi semestr	Joriy semestr	Maqsad
1	Tekshirilgan ishlar soni, jami va 2-jadvaldagi ish turlari bo‘yicha	Tizim statistikasi, reyestrlar			–
2	BMI va magistrlik dissertatsiyalarini tekshirish qamrovi, foiz	Reyestr, attestatsiya ro‘yxatlari			100 foiz
3	Kurs ishlari va amaliyot hisobotlarini tekshirish qamrovi, foiz	Tekshiruvlar reyestri			100 foiz
4	Tanlanma tekshiruv o‘tkazilgan fanlar ulushi, foiz	Reyestr, o‘quv reja			5-jadval
5	O‘rtacha originallik, ish turlari bo‘yicha, foiz	Ma’lumotnomalar, reyestr			–
6	Birinchi tekshiruvda chegaradan o‘tgan ishlar ulushi (BMI alohida), foiz	Tekshiruvlar reyestri			90 foiz
7	Ogohlantirish berilgan ishlar va tasdiqlangan manipulyatsiya holatlari soni	Tekshiruvlar reyestri			–
8	SI ko‘rsatkichi 60 foizdan yuqori ishlar va tasdiqlangan SI holatlari soni	Tekshiruvlar va Buzilishlar reyestrlari			–
9	Qoidabuzarliklar soni, darajalar bo‘yicha (1, 2, 3)	Buzilishlar reyestri			–
10	E’tirozlar va apellyatsiyalar soni, qanoatlantirilganlari	Kafedra va Komissiya qarorlari			–
11	Ko‘rilgan choralar (qayta topshirish, 0 ball, F bahosi, himoyaga qo‘yilmaslik)	Buzilishlar reyestri			–
12	Muddatida rasmiylashtirilgan ma’lumotnomalar ulushi, foiz	Tekshiruvlar reyestri			95 foiz
13	Litsenziya qoldig‘i va uning keyingi semestr ehtiyojiga nisbati	Tizim (“Счетчик”)			–

Asosiy xulosalar (dasturlar va kafedralar kesimida farqlar, takrorlanuvchi holatlar, sabablar): _____

Taklif etiladigan choralar (trening mavzulari, topshiriqlar shakli, Tizim sozlamalari): _____

Tayyorladi: _____ Bo‘lim boshlig‘i: _____

Tahlil ta’lim dasturlari kesimida ham beriladi, shaxsiy ma’lumotlarsiz, kafedra majlisida yoki Komissiyada ko‘rib chiqiladi.